



JIZZAX VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI




*2023- yil
yanvar-avgust*



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-avgust)




Xizmatlar hajmi




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar
(1- sentabr holatiga ko'ra)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar
(yanvar-avgust)

Soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1- sentabr holatiga ko'ra)




Soni, birlikda



Soni, birlikda

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-avgust)



2023

50,3%


Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan ulushi

48,5%

2019

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-avgust)




■ Hajmi, mlrd. so'mda

📈 O'sish sur'ati

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2023- yil yanvar-avgust)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-avgust)

Регион	Hajmi, <i>mld. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Jizzax viloyati ¹⁾	6 134,8	100,0	109,0
Jizzax sh.	2 526,1	41,2	108,1
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	101,5	1,7	110,1
Baxmal	410,0	6,7	108,7
G'allaorol	512,2	8,4	112,2
Sharof Rashidov	823,9	13,4	106,5
Do'stlik	202,9	3,3	110,4
Zomin	499,1	8,1	111,0
Zarbdor	222,7	3,6	108,3
Zafarobod	109,2	1,8	108,5
Mirzacho'l	173,6	2,8	111,1
Paxtakor	230,3	3,8	122,2
Forish	278,7	4,5	109,4
Yangiobod	44,6	0,7	88,6

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) qiymat vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-avgust)



■ Hajmi, ming so'mda ● O'sish sur'ati

Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-avgust)



Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

(yanvar-avgust)




Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **59,0** foizni, shu jumladan, **19,6** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

— Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish sur'ati

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik

(2023- yil yanvar-avgust)



— Hajmi, mlrd. so'mda

● O'sish

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


(2023- yil yanvar-avgust)

Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	6 134,8	100,0	109,0
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	314,3	5,1	121,2
Moliyaviy xizmatlar	1 676,1	27,3	114,8
Transport xizmatlari	885,5	14,4	103,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	851,2	13,9	100,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	201,0	3,3	103,6
Savdo xizmatlari	1 766,4	28,8	105,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	113,1	1,9	102,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	269,0	4,4	120,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	122,4	2,0	104,4
Ijara xizmatlari	97,2	1,6	82,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	153,2	2,5	102,7
Shaxsiy xizmatlar	177,8	2,9	102,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	80,2	1,3	104,6
Boshqa xizmatlar	278,6	4,5	125,8

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-avgust)



Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-avgust)

Jizzax viloyati	1 676,1	+14,8%
Jizzax shahri	1 116,9	+4,5%
Sharof Rashidov	84,7	+39,3%
G'allaorol	82,7	+40,8%
Zomin	78,6	+41,6%
Mirzacho'l	60,9	+28,9%
Baxmal	51,4	+77,1%
Zarbdor	45,8	+38,9%
Forish	44,4	+59,4%
Do'stlik	34,7	+32,8%
Paxtakor	32,5	+72,1%
Arnasoy	21,3	+59,0%
Zafarobod	20,0	+65,9%
Yangiobod	2,2	-75,1%

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-avgust)



Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat


Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahri ulushi 66,6 foizni yoki 1 116,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan Jizzax shahrida yuqori o'sish sur'ati 104,5 % ni tashkil etdi.

Hajmi, mlrd. so'mda O'sish

Transport xizmatlarining umumiy hajmi-da avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **96,1%**.


Sharof Rashidov tumanlarida transport xizmatlari hajmi **332,3** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **104,8** % ni tashkil etgan.

Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar-avgust)



Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2023- yil yanvar-avgust)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish

Avtotransport xizmatlari dinamikasi (yanvar-avgust)

2023- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **851,2** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,9 %** ni tashkil etdi.



Jizzax viloyati ¹⁾

Sharof Rashidov

Jizzax shahri

Baxmal

Zomin

G'allaorol

Forish

Zarbdor

Do'stlik

Paxtakor

Mirzacho'l

Zafarobod

Yangiobod

Arnasoy

851,2

324,2

151,0

77,5

77,4

66,6

34,6

33,3

25,5

24,0

15,8

8,0

6,9

6,4

+0,6%

+3,6%

+6,5%

-0,9%

+3,3%

+4,8%

+2,6%

+0,3%

+4,7%

+2,1%

+3,3%

-2,4%

-1,7%

+0,1%

Hududlar kesimida transport xizmatlari
(2023- yil yanvar-avgust)



2023- yil yanvar-avgust oylarida

avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **55,6 %**. Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yo'lovchilarni tashish xizmatlarining ulushi **44,4** foizni tashkil etdi.

Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish

¹⁾ hududlar bo'yicha ko'rsatilmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2023- yilning yanvar-avgust

oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **79,5 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2023- yil yanvar-avgust)



Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati (%)
Jizzax viloyati ¹⁾	1 766,4	+5,3%
Jizzax shahri	408,4	+5,2%
G'allaorol	242,9	+7,4%
Sharof Rashidov	191,4	+7,5%
Baxmal	189,3	+0,6%
Zomin	180,2	+4,4%
Paxtakor	105,7	+27,5%
Forish	101,7	+1,9%
Do'stlik	94,3	+6,1%
Zarbdor	86,3	+0,2%
Mirzacho'l	55,3	+1,1%
Zafarobod	45,7	-1,0%
Arnasoy	44,4	+0,2%
Yangiobod	20,8	-1,8%


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-avgust)

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2023- yilning yanvar-avgust** oylarida ularning ulushi **87,7** foizni tashkil etdi.




Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-avgust)

Jizzax viloyati	314,3	+21,2%
Forish	51,3	+12,1%
Jizzax shahri	48,3	+13,6%
Sharof Rashidov	42,5	+24,3%
G'allaorol	32,6	+25,9%
Zomin	31,3	+26,0%
Baxmal	29,9	+25,6%
Zarbdor	16,7	+26,3%
Paxtakor	15,5	+25,6%
Do'stlik	12,4	+24,8%
Mirzacho'l	10,0	+25,9%
Zafarobod	9,5	+26,2%
Arnasoy	8,8	+25,8%
Yangiobod	5,5	+26,8%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-avgust)




Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yil yanvar-avgust** oylaridagi ulushi **73,9 %** ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2023- yil yanvar-avgust)



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-avgust)

2023- yilning yanvar-avgust oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi **66,3** foizni tashkil etdi.




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-avgust)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi


(yanvar-avgust)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **96,5** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq

xizmatlar (2023- yil yanvar-avgust)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-avgust)

2023-yilning yanvar-avgust

o'ylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlari ustunlik qildi – **88,0** foiz.



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2023- yil yanvar-avgust)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlangan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish

Ijara xizmatlari dinamikasi

(yanvar-avgust)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2023- yil yanvar-avgust, mlrd. so'mda)



2019- yilning yanvar-avgustga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi 33,6 mlrd. so'mga oshib, 97,2 mlrd. so'mga yetdi.


Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida 2023- yil yanvar-avgust oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi 73,2% ni tashkil etdi.



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlar dinamikasi


(yanvar-avgust)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **20,8** foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni


ta'mirlash xizmatlar (2023- yil yanvar-avgust)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda O'sish

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-avgust)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-avgust, mln. so'mda)

Jizzax viloyati	80 161,3
Jizzax shahri	72 822,0
Forish	295,7
Zafarobod	142,4
Mirzacho'l	3,7
Zarbdor	21,7
Zomin	136,9
Do'stlik	124,2
Sharof Rashidov	5 661,9
G'allaorol	465,4
Baxmal	416,2
Arnasoy	71,2

2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisba-tan 2023- yilning ushbu oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **22,5** mlrd. so'mga oshib, **80,2** mlrd. so'm-ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi **90,8** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.